



**TIBBIYOT OLIY TA'LIM TASHKILOTI TALABALARINING KREATIV
QOBILIYATLARINI OSHIRISH USULLARI**

Xursanov Sherzod Ulaboyevich

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7315460>

Annotatsiya

Ushbu maqolada tibbiyot oliy ta'lim tizimida talabalarga amaliy ko'nikmalarni qadama-qadam bajarishni o'rgatish jarayoni va metodikasida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini oshirishga alohida to'xtalgan. Talabalarning kreativ qobiliyatlarini takomillashishi bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri sanaladi. Shu sababli maqolamizda talabalarning kreativ qobiliyatlarini takomillashishida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, tafakkur, insho, iqtidor, ijodkor, qobiliyat, ta'lim,

Абстрактный

В данной статье процесс и методика поэтапного обучения студентов выполнению практических навыков в системе медицинского высшего образования ориентированы на повышение креативности студентов. Совершенствование творческих способностей учащихся считается одной из актуальных проблем на сегодняшний день. По этой причине в нашей статье раскрываются аспекты, которые следует учитывать при совершенствовании творческих способностей учащихся.

Ключевые слова: творчество, мышление, сочинение, талант, творец, способность, образование,

Abstract

In this article, the process and methodology of step-by-step training of students in the implementation of practical skills in the system of higher medical education is focused on increasing the creativity of students. Improving the creative abilities of students is considered one of the urgent problems today. For this reason, our article reveals aspects that should be considered when improving the creative abilities of students.

Key words: creativity, thinking, writing, talent, creator, ability, education,

Tibbiyot oliy ta'lim tashkiloti talabalariga kreativ qobiliyatlarni takomillashishi jarayonida ijodiy fikrlab amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam bajarishni o'rgatishdan iboratdir. Talabalarga kreativ qobiliyatlarni takomillashishi jarayonida pedagogika fanidagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy masalalardan hisoblanadi. Chunki tibbiyot xodimlarining kreativ qobiliyatlarni takomillashishi, zamonaviy aqlli tibbiyot rivojlantirishda, eng muhim kurash





qurolidir. Mustaqil O'zbekiston respublikamizda har bir kishining kreativ qobiliyatlarini takomillashgan bo'lishiga alohida e'tibor berilmoqda. O'quvchini kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish jarayonida ijodiy fikrlab amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam bajarishni o'rgatishda talabalarning faoliyat ko'rsatishi uchun zaruriyat va ehtiyojini yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim. Shunday ekan kreativ qobiliyatlarni takomillashtirish jarayonida talabalar ko'proq amaliy ko'nikmalar qadamma-qadam bajarishi kerak. Talabalarda kreativ qobiliyatlarni takomillashtirish jaroyinda talabalarning kreativligini oshirish, talabalarda kreativ qobiliyatlilik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushuncha mazmunini bilish lozim.

“Kreativlik” tushunchasi o'z mazmunidan ijtimoiy-statusli hodisa sifatida ifodalanadi. Kreativlik – shaxsning rivojlanishi, uning har tomonlama takomillashishi va mahsuldor-foydali ijtimoiy shakllanishining mustahkam kafolati va ishonchli omilidir. Kreativ, intellektual-ijodiy rivojlangan yoshlar davlat tayanchi, jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi, mamlakatning uning rivojlanishining barcha sohalaridagi muvaffaqiyatlarga erishish poydevori, deb e'lon qilinadi.

Kreativlik (ijodiylik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, yangicha fikrlash, original g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon. Tushunchaga berilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, kreativlik ham xuddi tashabbuskorlik, ishga ijodiy yondashuv xislatlari singari albatta tug'ma, ilohiy tuhfa bo'lishi aslo shart emas. Modomiki, kreativlik – aqliy jarayon ekan, odam aqlini yuksaltirishning, rivojlantirishning, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishning

bitmas-tuganmas yo'llari va usullari, albatta, topiladi.

Bu borada mutaffakir Abu Ali ibn Sino qarashlarida ham kreativlikni talqin etishimiz mumkin. Uning qarashlarida o'qituvchi o'z o'quvchilarning mayl, intilish, faolligi, qobiliyati, iste'dodi va layoqatini aniqlamasdan turib, uni ijodiy fikrlashga yo'naltira olmaydi degan.

Mutaffakir Jalolidin Davoniy “Axloqi Jaloliy” nomli asarida insoniy fazilatlarda aqliy qobiliyat va aqliy iste'dodni tarbiyalash uchun zukko, zehnli, fahm-farosatli, ijodkor bo'lishi va bilimlarni tez eslab qolishi, ularni anglab yetish lozimligini ta'kidlagan.

Mutafakkir Zahiriddin Muhammad Bobur qarashlarida ham kreativlikni ko'rishimiz mumkin: U inson shaxsining taraqqiy ettirishning asosiy yo'llaridan biri deb muammoli vaziyatni, ijodkorlikni tushunadi va undan o'z faoliyatida unumli foydalangan.





Albert Eynshteyn “Tasavvur-bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. “Kreativlik” soʻzini ilk bor 1922-yilda AQSH olimi D.Simpson tomonidan qoʻllangan. Ushbu atama bilan shaxs qolipdagi, stereotip odatiy tafakkurida voz kechish qobiliyatini taʼriflagan. Shuningdek, boshlangʻich sinf oʻquvchilarini kreativligini rivojlantirish, faollashtirish uchun oʻqituvchilar oʻquvchilarni obrazli fikrlashga undashi, muammoni aniq ifodalash, fikrning doimo tugallangan jumla bilan hamda muhim joylarga urgʻu berib ajratgan holda ifoda etishi, xushmuomalali va ziyrak boʻlishi, “Faraz qiling”, “Tasavvur eting”, “Ijodiy parvoz eting” va shu kabi soʻz birikmalaridan foydalanishi boʻyicha tavsiya beriladi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, maʼnaviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega boʻlgan bilimlarning koʻpqirrali ekanligida emas, balki yangi gʻoyalarga intilish, oʻrnatilgan stereotiplarni isloh qilish va oʻzgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon boʻladi. Yaʼni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib boʻlmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi gʻoyaning paydo boʻlishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida soʻzlarni yodlab, grammatika qoidalarini “suv qilib ichib yuborgan” boʻlsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol oʻynaydi. Albert Eynshteyn “Tasavvur — bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Koʻpincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Kreativlik (ijodiy qobiliyatlar). Koʻrsatib oʻtganimizdek birgina IQ (intellekt koeffitsienti) asosida kishini ishga qabul qilish, uning imkoniyatlarini baholash notoʻgʻri bular edi. Shu sababli 50 yillardan boshlab aqliy rivojlanishni oʻrganish bilan bir qatorda kishining ijodiy qobiliyatlarini ham oʻrganish va oʻlchashga katta eʼtibor berib boshlandi. Bu borada maxsus testlar yaratildi.

"Intellekt" tushunchasi koʻproq psixologiyadagi konvergent tafakkur tushunchasiga mos keladi - birdan-bir toʻgʻri javobni izlash va unga keltirishga yoʻnalgan.

"Kreativlik" tushunchasi esa koʻproq divergent tafakkur tushunchasiga mos keladi. Divergent tafakkur, bu turli tomonlarga tarmoqlanuvchi, bir vaqtning oʻzida turli yoʻnalishlarga tarqaluvchi, koʻplab yechim variantlarni yaratishga





yo'nalgan tafakkur. Shu sababli divergent tafakkur kutilmagan natija va yechimlarga olib keladi.

Ijodiy qobiliyatlarni (kreativlik) baholashda berilgan vazifani yechishning "engilligi", "moslashuvchanligi va egiluvchanligi", "orginalligi"ga e'tibor beriladi. Qobiliyatlar , masalan, olim, yozuvchi, konstruktor va hokozolar shug'ullanadigan aqliy mehnat bilan mashg'ul bo'lgandagina paydo bo'lib qolmaydi. Faoliyat turlari "oliy" va "quyi" xillarga bulinmaydigan va texnika taraqqiyoti oddiy ishchini yoki kishlok xo'jaligi sohasida ishlayotgan mehnatchini ijod bilan shug'ullanishga, ratsionalizator bo'lishga, ishlab chiqarishda yuqori ko'rsatgichlarga erishishga undayotgan, ayniqsa bizning mamlakatimizda jismoniy ishda ham qobiliyatlar nomoyon bo'laveradi.

Qobiliyatlarning tabiiy shartlari

Har bir kishida tug'ma layoqat nishonalari, ya'ni miyaning oliy nerv faoliyatining analizatorlarining o'ziga xos xususiyatlari bor bo'ladi, binobarin, kelgusida biror qobiliyatni rivojlantirishga bo'lgan muayyan moyillik ana shunga bog'liqdir. Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarning majmui kishining iste'dodi deyiladi. Lekin bu tabiiy layoqat nishonalari muvaffaqiyatli faoliyatning to'la-to'kis shart-sharoiti bo'la olmaydi. Layoqat nishonalarni rivojlantirish kerak, bu esa faoliyat jarayondagina ruy berishi mumkin. Layoqat nishonalari ko'p qiymatlidir, yana tegishli sharoitlar mavjud bo'lganda, faoliyatga qarab layoqat nishonalari asosida turli qobiliyatlar rivojlanishi mumkin. Masalan, yaxshi eshitish va ohangni sezish qobiliyati mavjud bo'lganda bir kishi kompozitor, ikkinchisi yaxshi ijrochi, uchinchisi yaxshi dirijyor, to'rtinchisi musiqa tanqidchisi va hokozolar bo'lib yetishmogi mumkin. Qulay sharoitlar mavjud bo'lganda ayrim kishilarda qobiliyatlar juda erta rivojlanadi. Odatda musiqa va tasviriy san'atga bo'lgan layoqat ancha ertaroq paydo bo'ladi. Masalan, M.I. Glinka 3-4 yoshidayoq shunday o'yinni juda yoqtirgan: u ovoz chiqaradigan turli buyumlarni (mis, tog'oracha, kostrilka) yog'och bilan chalgan. Bunda kattalarni hayron qoldiradigan darajada ohangdosh tovushlar paydo bo'lganki, ularni eshitish maroqli edi. Keyinchalik bu bola buyuk kompozitor bo'lib yetishdi. Biroq shunday ham bo'ladiki, kishilar bolalikda favqulodda qobiliyatlarini nomoyon qilganlar-u, biroq katta bo'lgach, ulardan mahrum bo'lganlar. Lekin bunday hollar nisbatan kam uchraydi.

Qobiliyatlar faoliyat davomida rivojlanadi. Qobiliyatlarni rivojlantirishning birinchi sharti - faoliyatga bo'lgan ehtiyojni tarbiyalashdir. Mehnatga bo'lgan



ehtiyojni tarbiyalash uchun ishga qiziqish va unga odatlanish katta ahamiyatga egadir.

Qobiliyatlar shaxsning boshqa sifatleri bilan chambarchas bog'langan. Kishining talantli ekanligi ma'lum darajada uning psixik jarayonlari, shuningdek, ko'pgina psixik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Ayrim qobiliyatlarni rivojlantirishda tegishli bilish jarayonlarining yuqori darajada bo'lishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, musiqachi uchun eshitish, rassom uchun ko'rish idroklari katta ahamiyatga ega. Kishi o'z qobiliyatlarini rivojlantirish bilan shug'ullanar ekan, bu rivojlanish quruq maqsaddan iborat bo'lib qolishi kerak emas. Asosiy vazifa jamiyatning munosib, foydali a'zosi bo'lib yetishishdan iboratdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, aqliy qobiliyatlarning shakllanishida ham irsiyatning ham atrof muhitning roli muhim. Insonning dastlabki rivojlanish bosqichida irsiy omillar etakchiroq bo'lib ko'rinadi. Lekin yillar davomida ayniqsa aqliy qobiliyatlarning rivojlanishiga atrof- muhit o'z ta'sirini ko'rsatib boradi. Uning keyingi rivojlanishi yoki so'nib borilishi atrof-muhitga bog'liq bo'lib qoladi.

Aqliy qobiliyatning jinsiy farqlari mavjud bo'lib, ayollarning xotirasi erkaklarnikiga qaraganda kuchli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Erkaklarda esa matematik va fazofiy qobiliyatlar yaxshi rivojlanganligi aniqlangan.

Yuqoridagi fiklar va xalqaro normativ-xujjatlar tahlilidan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, yangi g'oyalar yaratadigan va vazifalarga noan'anaviy tarzda yondashuvchi ijodkor kishilar aksariyat ish beruvchilarda doimiy qiziqish uyg'otadi.

Ijodkorlik va yaratuvchanlik fazilatlari mutaxassisdan talab qilinadigan ko'nikma, fazilatlar reytingida yuqori o'rinni band qiladi. Bugungi kun taraqqiyot shiddati har bir davlat va uning fuqarolaridan muntazam tarzda yangilik sari intilishni, yangi g'oyalar, tashabbuslar, kutilmagan yondashuvlar va yechimlarni talab etadi. Bu jarayondan qisqa muddat uzilib yoxud ortda qolish pirovardida sezilarli qoloqlikni, demakki, hamma sohada ilg'or davlatlarga qaramlikni keltirib chiqarishi tayin.

Boshqa tomondan bugungi shifokorlar shiddat bilan o'zgarayotgan zamon bilan hamnafas, uning to'laqonli ishtirokchisi bo'lishi darkor. Chunki Respublikamizda aqli tibbiyot tizimi qonun hujjatlari, huquqiy normalar tasdiqlanyapti, birining o'rniga boshqasi joriy etilyapti. Bu jarayonlarda tibbiyot xodimlari "aqli tibbiyot", "raqamli tibbiyot" tizimlarida amaliy ishlay olish va samarali hal etishda, milliy tibbiyot tizimimizni isloh qilishda bizga yaratuvchanlik,





izlanuvchanlik, kreativlik qobiliyatiga ega shifokor kadrlar havodek zarur. Aynan shunday – yangi zamonaviy raqamlashtirish davrida kreativ qobiliyatli shifokorlargina yurtimizning tibbiyot sohasi bo'yicha rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishida hal qiluvchi rolni bajaradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova.K, S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariev. "Ona tili o'qitish metodikasi" - T.: «NOShIR», - 2009. 352 b.
2. Jumanova S. "Kreativlik qobiliyat", <https://www.standart.uz/news/view?id=1627>
3. Hamdamova. M, "Yoshlarni intellectual salohiyatini rivojlantirish mexanizmining pedagogik-sixologik asoslari", Toshkent 2007.
4. <https://fayllar.org/d-sharipova-d-p-xodiyeva-m-k-shirinov.html?page=35>

